

ABDURAZZOQ FAQIRIY VA XORAZM ADABIY MUHITI

Mehribon Qo'shnazarova
UrDU akademik litseyi o'qituvchisi
Akbar Otaboyev
UrDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XIX-XX asr boshlarida Xiva adabiy muhiti va uning taniqli namoyandalari, shuningdek, Xivada yashab ijod etgan shoirlardan biri Abdurazzoq Faqiriyning hayot yo'li, ijodi hamda maslak-qarashlari imkoni boricha yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *Xiva adabiy muhiti, tasavvuf, g'azal, "Devoni Faqiriy Xorazmiy", poetik uslub, demokratik g'oyalar.*

Xorazm – insoniyat badiiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo'shgan qadimiy maskanlardan biri. Bu tabarruk zaminda tavallud topgan ijodkorlar o'zbek adabiyoti tarixining barcha bosqichlarida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishgan. Milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan mumtoz adabiyotimiz bisotining salmog'ini belgilashda Xorazm adabiy muhitining alohida o'rni bor.

Adabiyotimiz rivojining g'oyaviy-badiiy mundarijasida ustuvor bo'lgan tasavvufona qarashlar (XI-XIV asrlar), dunyoviy gumanistik motivlarning kuchayishi (XV-XVIII asrlar), ma'rifatparvarlik va demokratik g'oyalarning keng yoyilishi (XIX-XX asr boshi) bilan xarakterlanadigan keyingi bosqichlarida ham Xorazm adabiy an'analar markazlaridan biri bo'ldi [1]. Aynan, mana shu uchinchi bosqichda Xorazm adabiy muhitining darg'alaridan bo'lgan Munis, Ogahiy va Komil Xorazmiy singari qalam ahllarining munosib davomchilari sifatida adabiyot maydoniga kirib kelgan Chokar, Mutrib, Ahmad Tabibiylar qatorida shoir Abdurazzoq Faqiriyning ham nomini tilga olish o'rinlidir. Shuningdek, bu davrda Xivada Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammadrasul Mirzo (1840- 1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923), Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fi (1860-1916), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Safo Mug'anniy (1882-1938), Komiljon Devoni (1887-1938), Muhammad Rahim Rog'ib (1918 y. vafot etgan) kabi ko'plab shoirlar ham yashab ijod etdilar.

Adabiy harakat ko'proq ma'rifatparvar xon Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz saroyda adabiy muhitni maydonga keltirdi. Uni yaqindan bilgan ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, O'rta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi Feruz edi. U o'sha davrga qadar o'tgan hukmdorlar ichida eng ko'p muddat xonlik qilgan va o'zidan keyin yaxshi nom qoldirgan hukmdorlardan biridir.



Muhammad Rahimxon soniyning xonlik davri 1863-1910 yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda Xorazm o'lkasida juda ko'plab o'zgarish, yangilanishlar ro'y berdi. U "usuli jadid" ga yo'l berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma olib keldi. Uning topshirig'i bilan Ahmad Tabibiy (1869-1911) "Majmuat ush-shuaroyi Feruzshohiy" ("Feruzshoh shoirlari antologiyasi") ni tuzadi. Qo'qon xoni Amir Umarxonning 1821- yilda tuzdirgan "Majmuai shoiron"ini esga tushuruvchi bu kitobdagi matnlarning aksariyati o'zbek tilida edi. Bu haqda tarixnavis Hasanmurod Laffasiy shoh va shoir Feruz zamonida ko'plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo'lga qo'yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o'zi bularning barchasiga boshchilik qilgani haqida ma'lumot beradi: "Feruzning huzurida doimiy yetti-sakkiz nafar go'yandalar soz, tambur, g'ijjak, bulamon mashq etib o'ltiradurlar. Masalan: Muhammad Yoqub devon va Muhammad Yoqub pozachi, Avaz dorch'i kabilar" [2]. Feruz saroyga shoirlarni to'plab, ularga zamon ruhini talqin qiluvchi she'rlar yozish uchun sharoit va imkoniyat yaratib berdi. Ijodkorlarning har biriga Feruz o'z qobiliyatiga qarab ijtimoiy vazifa ham topshirgan. Masalan, she'riyatda ko'zga ko'rinib qolgan, kuchli iste'dod egasi bo'lgan Tabibiy saroy shoirlarining sardori qilib tayinlangan. Doiy esa rostgo'y va so'zamolligi uchun masjidga voiz bo'lgan. Qo'rqmas va shijoatkorligi uchun Ko'hna Urganchga hokim qilib qo'yilgan Shinosiy go'zal she'rlar yoza boshlaganidan keyin saroyga taklif etilib, vazirlikka tayinlangan [3].

O'tmish shoirlarining ijodini o'rganish, asarlar bitish, tarjima qilish keng tus oldi. O'sha davrda she'riyat o'zbek adabiyotida yetakchi janr edi. She'riyatda ijod qilingan asarlarda, asosan, zamon talabi bo'lgan ishq-muhabbat, alam va iztirob, gul va bulbul, vasl va hijron o'z ifodasini topardi. Lekin zamon ruhini, xalq dardini baralla kuylagan ko'pgina ijodkorlar adolatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlari bilan mashhur edilar. Bu davrda hayot, inson erki va taqdiri muammolariga qiziqish har qachongidan ham kuchaydi, she'riyatda janrlar soni 20 dan oshdi, tarixnavislik va tarjimonlik keng yoyildi. Bu yuksak saviyadagi muhit yosh Abdurazzoq Faqiriy dunyoqarashiga ijobiy ta'sir etdi. Uning shoirona hislariga turtki, serqirra iste'dod sifatida kamol topishiga asos bo'ldi. Faqiriy qalbida adabiyotga nisbatan so'nmas e'tiqod, mehr tug'iladi. Juda yoshligidan boshlaboq, ziyrak, zehni tez Abdurazzoq Faqiriy she'rlar mashq qila boshlaydi.

Xiva xonligida hamda Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy – Feruz saroyida ijod qilgan 51 nafar shoirning hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlarni bergan tarixnavis Hasanmurod Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asarida shoir Abdurazzoq Faqiriy ijodi yuksak baholanganligini aytib o'tishimiz darkor. Abdurazzoq yoshligidan yuksak tarbiya topdi, she'rga, ilmga, musiqaga ko'ngil qo'ydi. Iste'dodli shoir, mug'anniy va musiqa bilimdoni bo'lib yetishdi. Zamondoshlari Ahmad Tabibiy, Laffasiy o'z tazkiralari uning hayoti va faoliyati haqida atroflicha ma'lumot beradilar. Uning shaxsini ham, iste'dodini ham yuksak baholaydilar.



Faqiriykim Maxsum qori erur,
Ki ismi Abdurazzoq qori erur.
...Qilibon yana sho'x ash'orlig',
Qilurdi naqshda xushyorlig' [4].

Biz Laffasiyning mazkur asariga tayanib shoir Faqiriy hayoti va ijodi haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xivadagi mana shunday adabiy muhit Faqiriyning yetuk shoir bo'lib shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Savodini esa Xivadagi ibtidoiy diniy maktablarda chiqargan Abdurazzoq otasi Abdujabbor qoridan kalomullo tilovatini mukammal o'rganadi. Otasi o'z o'g'liga maktabdan tashqari vaqtlarda Navoiy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy kabi mumtoz shoirlarning asarlarini o'qib beradi, husni xatga o'rgatadi. Faqiriy shundan keyin Xivadagi Olloqulixon madrasasida tahsil oladi. Sharq mumtoz adabiyotini o'rganib, o'zi ham she'rlar yoza boshlaydi. O'z davrining mashhur xattotlaridan Xudoybergan Devondan ham ta'lim olgan Abdurazzoq ancha xushxattot bo'lgani uchun Feruz Muhammad Rahimxonga har turli bayozlar yozib, ma'lum muddat kotiblik vazifasini ham bajargan. Shoir, shuningdek, naqqoshlik hunarini ham mukammal darajada o'rgangan. Laffasiyning "Tazkirayi shuaro" asarida agar Faqiriyning ishlagan naqshini ko'rsalar, hatto naqqoshlik hunarining Aflotunlari ham unga shogird tushishni orzu qilishlari haqida haqqoniy baho berilgan.

Faqiriydan bizgacha ikkita devon yetib kelganligi haqidagi ma'lumotni filologiya fanlari nomzodi Valijon Mirzayev ham keltirib o'tadi. Shoir devoni O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida "Devoni Faqiriy Xorazmiy" nomi bilan saqlanmoqda. Bu devonni shoirning o'zi 1914-1915-yillarda tuzgan. Shuningdek, "Daftar ul-ash'ori jadida" to'plami shoirning 1923-1924-yillardagi she'riy merosini o'ziga jamlagan. Devonlarda ishqiy g'azallardan tashqari, zamona adolatsizliklaridan, bevafo do'st va yomon xulqli kishilardan shikoyat etilgan sermazmun asarlar bor. Shoir devonning kirish qismida o'zi haqida xabar beradi. Bir masnaviy keltirib, o'z ahvolining yomonligi va zamonaning nosozligidan shikoyat ham qiladi. Shunisi qiziqki, bu she'rning ayrim o'rinlari Ogahiyning devonidagi kirish qismida ham uchraydi. Bu narsa Ogahiy bilan Faqiriyning ijtimoiy ahvolidagi muayyan o'xshashliklar bilan izohlanadi.

Abdurazzoq Faqiriy juda ham qashshoq hayot kechirgan va shu bois dastlabki she'riy mashqlaridanoq "Faqiriy" degan taxallusni qo'llay boshlaydi. Bu esa shoirning ijtimoiy ahvoli bevosita uning ijodiga ham ta'sir o'tkazganini ko'rsatadi. Shoir, ayniqsa, zamon ahliidan qattiq shikoyat qiladi. Odamlarda mehr-oqibat degan tushunchalarning qolmagani, bu esa shoir ruhiyatiga chuqur ta'sir qilayotgani "Shoir o'z ahvoli haqida" nomli she'rida quyuq bo'yoqlarda aks ettirilgan:

Kima qilsam ziyofat, yaxshi xizmat,
Chiqib kulbamdin ettilar nadomat.



Man aylardim hama mo'ming'a ixlos,
Mani o'ynar edilar om ila xos [5].

Faqiriyning ijodidagi o'ziga xoslik shundaki, u rasmiy vazifalarda xizmat qilgan va badiiy ijod bilan shug'ullangan Munis, Ogahiy, Tabibiy va Bayoniylardan farqli o'laroq, barcha she'rlarida tanqidiy ruh kuchli bo'lgan.

Shoir ijodida zamondoshlari: Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiylar bilan bir qatorda hazrat Navoiy asarlarini o'rganish va undan ilhomlangan holda uning an'analarini munosib davom ettirishga bevosita harakat qildi. "Ey ko'ngul, nazm ichra yorumand Navoiydur senga", degan Faqiriy uning badiiyatini, so'z qo'llashdagi mahoratini va o'ta kuchli mushohada yurita olish qobiliyatini yetarlicha o'zlashtirib oldi. Garchand Faqiriy she'rlarida yor, mahbuba, suyukli, oshiq va raqib obrazlaridan unumli foydalanib, tasavvufona maslak-qarashlarni ifodalashga harakat qilsa-da, biz uning ijodini to'laligicha tasavvuf ta'limoti bilan bog'lay olmaymiz. Ma'lumki, Navoiy ijodi g'oyasining, fikrlari va xulosalarining negizi bo'lgan tasavvuf ta'limoti asosida shakllangan mumtoz adabiyotimizda ishq tushunchasi asosiy tasvir markazi hisoblanadi. Bu ta'limotga ko'ra, ishq ikki xil, ya'ni haqiqiy va majoziy bo'ladi. Majoziy ishq deganda bandaning o'ziga o'xshagan insonga, ya'ni Payg'ambarlarga, avliyolarga, ota-onaga, yorga, farzandga, do'stga bo'lgan muhabbati tushuniladi. Haqiqiy ishq esa faqat ma'shuqi azalga, ya'ni Allohga bo'lishi kerak. Shuning uchun Navoiy g'azallarida uchraydigan yor, mahbuba, dildor obrazlari Yaratganni anglatga, oshiq deganda Xudo yo'liga o'zini baxsh etgan solik banda tushuniladi. Raqib, dushman, g'anim obrazlari bevosita insonni haddan ziyod tubanlashtiradigan nafsni, o'tkinchi dunyoga bo'lgan sevgini anglatadi. Tasavvuf adabiyoti mana shunday o'ziga xoslikka ega. Lekin Faqiriy bu adabiyotning to'laqonli vakili bo'lmasa-da, Navoiy ijodiga bo'lgan qiziqishi va undan ijodiy oziqlanishi natijasida tasavvuf adabiyoti namoyandalari: Mashrab, So'fi Olloyor, Ubaydiy asarlariga hamohang she'rlar yarata olgan. Faqiriyning she'rlari, asosan, dunyoviy adabiyotga xos gumanistik g'oyalar bilan sug'orilganligini unutmasligimiz kerak. Bu esa bevosita shoir she'riyatini haqqoniy baholay olishimizga turtki beradi.

Feruz davrida gullagan adabiyot bo'stoni undan keyin hukmdorlik qilgan Asfandiyorxon zamonida tanazzulga yuz tuta boshladi. Iqtidorli shaxslarga g'oyatda mehr bilan qaragan Feruzning o'g'li Isfandiyorxon valiahd etib tayinlashiga ham uning Farrux taxallusi bilan she'rlar yoza boshlagani sabab bo'lgan. Feruz ijod ahlining qalbida go'zallik va ezgulik bo'lishiga qattiq ishongan. Ammo o'g'li Isfandiyorxon noqobilligi uchun ijodkorlarga muruvvat qo'lini cho'zmadi. Xususan, o'sha davr Xiva adabiy muhitining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Avaz O'tarni ikki yuz darra urdirgani ham ayni haqiqat edi. Shoir Faqiriy esa bevosita markazdan chetlatildi. Bu davrda omma hayoti yanada og'irlashadi. Turmush va xizmat taqozosi bilan xalqning azobi, iztirobga to'la ahvolini o'z



ko'zi bilan ko'rgan Faqiriy saroy a'yonlarining chirkin muhitidan nafratlana boshlaydi. Tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy muhitdagi muttasil o'zgarishlar shoir dunyoqarashiga ijobiy ta'sir qiladi. 1905-1907 yillarda avj olgan inqilobiy qo'zg'alishlar Faqiriy nazmining ruhini o'zgartirgan bo'lsa, Asfandiyorxonning kirdikorlari uning ijodida saroy muhitiga nisbatan tanqidiy munosabatni kuchaytirdi. Ya'ni Faqiriy ijodining bu davrdagi mohiyati xalq hayotini haqqoniy tasvirlashni o'ziga maqsad qilib olganidan iboratdir. Shoir sifatida olam go'zalliklari va inson latofatini tarannum etuvchi ishqiy g'azallar yaratib kelgan Faqiriy bevosita Xiva xoni Isfandiyorxonning jabr-zulmini, xalq boshiga keltirgan qayg'u-kulfat va alamlarini, axloqiy buzuvchilikni fosh etishga qaratilgan bir qancha she'rlar yoza boshladi. Shoir "Ey palid" she'rida Isfandiyorxonni tubandagicha tasvirlaydi:

Zulmingni haddan oshirib,
Haqgo'y og'izga tosh urib,
Har dam fahshingni yashirib,
Bezoridirsan, ey palid [6].

Faqiriy yoshi o'tib qolganiga qaramasdan, madaniyat va maorif idoralarida, jumladan, Laffasiy ma'lumotlariga ko'ra, 1920-1921 yillarda "Xorazm xalq Sho'rolar Jumhuriyati zamonida hukumatga anchagina xizmatlar qilgan" [7].

Faqiriyning nafaqat ijodiy merosi, balki hayot yo'li ham xalq hayotini kuylash, uning og'riqli nuqtalarini chuqur his etish barobarida bugungi davr uchun ibrat maktabi bo'lib qolganligini alohida e'tirof etmoq lozim. Shoirning ijodiy merosi esa yetarlicha o'rganilmayotgani ham ayni haqiqatdir. Chunki Xiva adabiy muhiti haqida chuqur to'xtamga ega bo'lish uchun shu davr adabiy harakatining barcha namoyandalari ijodini atroflicha o'rganish, o'ziga xosliklari va mushtarak jihatlarini aniqlash kerak. Faqiriy o'zidan oldingi shoirlarning ham, zamondoshlarining ham she'riy merosini to'laqonli o'rganib, ularga o'xshash va o'xshamagan qarashlarini ifodalay olgan. Ayniqsa, uning ayrim she'rlarida zamondosh shoirlardan Chokar, Mutrib kabilarning she'rlariga o'xshatmalar yozgani ham shundan dalolat beradi. Faqiriy ham safdoshlari qatorida insonparvarlik g'oyalarini tarannum etgan, "boshig'a hardam tiyri sitam yog'ilmish mardum" ahvolidan benihoya aziyat chekkan, xalqni olg'a chorlagan, eskilik sarqitlarini inkor etgani holda xalq ma'rifatini o'stirish, dunyo mamlakatlari qatorida savodli va madaniyatli jamiyat barpo etish yo'lida jonkuyarlik ko'rsatgan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida, jadidchilik harakati maydonga keldi. Faqiriy ham shu harakatning peshqadamlaridan biri edi. Ularning fikricha, savod chiqarishning dastlabki yo'li to'xtovsiz rivojlanib borayotgan dunyo ilm-fanini qamrab olgan jadid maktablarini tashkil qilish edi. Faqiriy ham "Yangi maktablar" she'rida shunday qarashlarni badiiy jihatdan go'zal satrlarda ifodalab beradi:

Bilingkim, toza davron jarchisidur yangi maktablar,



Jaholat qasrini ham buzg‘usidur yangi maktablar.

Faqiriy ijodida yosh avlodni ma‘rifatli qilish, xalqning savodxon bo‘lishini ko‘rish orzusi, pand-nasihatga alohida e‘tibor qaratish asosiy o‘rin tutadi. U o‘sha davridayoq millat taqdiri, uning istiqbolini belgilovchi omillardan biri xalqning turli xil ilm-hunarlarini o‘zlashtirishidan iborat ekanligini teran angladi.

Umrining ijtimoiy, adabiy faol kechgan so‘nggi davri ijtimoiy ruh, ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan Abdurazzoq Faqiriydan bizga boy adabiy meros qoldi. Bugun bizning oldimizda turgan vazifalardan biri ham Xiva adabiy muhitida alohida mavqega ega bo‘lgan shoirlardan biri bo‘lmish Abdurazzoq Faqiriyning lirik merosini to‘laqonli o‘rganish va uning ijodida yetakchilik qiladigan ustuvor g‘oyaviy yo‘nalishlarni belgilash orqali shoirning ijodi bilan keng ommani tanishtirishdan iborat bo‘ladi. Faqiriy ijodining o‘rganilishi zarur bo‘lgan qirralari juda ko‘p. Uning adabiy merosi mazmuni jihatidan ham, hajmi jihatidan ham salmoqdor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ogahiy abadiyati. „O‘zbekiston“ nashriyoti. –T: 1999. B – 9.
2. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. „Xorazm“ tahririyat-nashr bo‘limi. – Urganch.–1992. B – 25.
3. Ismoilova G. Chaqmoqli orzular ijodkorlari. „Istiqlol nuri“ nashriyoti. –T: 2014.B – 6.
4. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. „Xorazm“ tahririyat-nashr bo‘limi. – Urganch.–1992. B – 114.
5. Asrlar nidosi. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – T: 1982.B – 505.
6. „Daftar ul-ash‘ori jadida“. B – 21.
7. Laffasiy. Tazkirayi shuaro. „Xorazm“ tahririyat-nashr bo‘limi. – Urganch.–1992. B – 115.
8. Abdurazzoq Faqiriy. She‘rlar. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. – T: 1972. B – 14.

